

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI

«QURILISHNI BOSHQARISH» FAKULTETI

«SHAHAR QURILISHI VA XO‘JALIGI» KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi:

**Qodiriy nomidagi Madaniyat institutining 1 o‘quv korpusini
rekonstruksiya qilish**

Talabaning familiyasi, ismi va sharifi: **Muxamedaminov Ziyodullo**

Kafedra mudiri:

dots.A.T.Xotamov

Bitiruv malakaviy ishi raxbari:

dots. D.M.Qambarov

Toshkent-2014

MUNDARIJA:

I.	KIRISH	Ошибка! Закладка не определена.
II.	Arxitektura - qurilish qism.....	9
2.1.	Turar joy binolari.....	10
2.2.	Turar-joy binosining umumiy tavsifi	12
2.3.	Binoni texnik ko'rikdan o'tkazish	16
2.4.1.	Vizual ko'rik	16
2.4.2.	Instrumental ko'rik.....	23
2.4.3.	Ko'rik tahlili.....	24
2.5.	Qabul qilingan vazifalar	25
2.5.1.	Hajm-rejaviy yechim uchun vazifa	25
2.5.2.	Konstruktiv yechim uchun vazifa	25
III.	KONSTRUKTIV-HISOB QISMI	34
3.1.	Yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning texnik holati.....	35
3.2.	Binoni tekshirish va texnik tadqiqod usullari.....	37
3.3.	Tekshirish natijalari bo'yicha bino holatiga qarab qilinadigan ish va vazifalarni aniqlash.....	40
3.4.	KO'P DUMALOQ TESHikli QAVATLARARO YoPMA PANELINI KONSTRUKSIYalash VA HISOBLash	41
IV.	TASHKILIY - TEXNOLOGIK QISMI	63
4.1.	Ishlab chiqarish ishlari loyihasi	64
4.2.	Ishni tashkil etish va uning texnologiyasi.....	64
4.3.	Tarmoq grafigi.....	65
4.4.	Ish hajmini aniqlash.....	65
4.5.	Materiallarga ehtiyoj	68
4.6.	Mashinalar va asbob-uskunalarga ehtiyoj	69
4.7.	Ishchilar soni hisobi.....	71
4.8.	Ob'ektning qurilish bosh rejasi.....	73

4.9. Omborlar hisobi	74
4.10. Vaqtinchalik imoratlar va inshootlar hisobi.	78
4.11. Vaqtinchalik suv o'tkazgich tarmoqlarining hisobi.....	79
4.12. Qurilish maydonini elektr bilan ta'minlash	81
V. MEHNAT MUHOFAZASI QISMI.....	84
5.1. Zamonaviy qurilishlarda mehnat muhofazasining o'rni.	85
5.2. Mirzo ulug'bek tumanidagi jamoat binosini rekonstruksiya qilishda mehnat sanitariyasi va gigienasi.....	87
5.3. Mirzo Ulug'bek tumanidagi jamoat binosini rekonstruksiya qilish jarayonlarida mehnat xavfsizligi.....	89
5.4. Mirzo Ulug'bek tumanidagi jamoat binosini rekonstruksiya qilishda yong'in xavfsizligi	91
XULOSA.....	94
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	95

KIRISH

O'zbekiston Respublikamizaning mustaqilligiga erishgandan, so'ng mamlakatimizning millatlari orzu havasi yo'lida, qurilish sohasiga katta e'tibor qaratilib, yangi turar joy jamoat binolari va ishlab chiqarish, sanoat korxonalari qurilishi boshlandi. Bino va inshootlarni funksional vazifasini qisman yoki butunlay o'zgartirish, yangi samarali muhandislik qurilmalari o'rnatish, bino hududini obodonlashtirish, uni zamonaviy va zamonning yuksak me'yoriy yangi texnologik talablariga moslashtirish maqsadida qilingan tadbirlar rekonstruksiya deb ataladi. U ishlab chiqarish korxonasi, shahar rayoni, turar-joy massivlari, ijtimoiy- maishiy, madaniyat muassasalari majmuining bir qismi bo'lib qoladi.

Qaytajoylashtirish qayta rejalashtiruvni, xonalarbalandligini oshirish, konstruksiyalarini qisman ajratish va almashtirish hamda balandlashtirish, yondosh qurilmalarni amalga oshirish va bino fasadini afzallashtirishni o'z ichiga oladi.

Rekonstruksiya ga ajratilayotgan kapital mablag'lar hajmini sezilarli oshishi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng Vazirlar mahkamasining, shaxsan Prezident I. A. Karimovning qator farmonlari va olib borilayotgan ijtimoiy-investitsion siyosatning natijasidir. Birinchi navbatda, kasb-hunar o'quv yurtlari, o'rta umumta'lim maktablari, sport inshootlari, qishloq tibbiyot markazlari va bozor inshootlariga ta'luqli. Sanoat korxonalar jamoat binolari rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirish masalasi ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Zero ishlab chiqarishning jadallashuvi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarishni amalga oshirmay turib jamiyatda keskin iqtisodiy burilish qilishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirganda yangi qurilishga nisbatan sezilarli ravishda kapital mablag'lar kam sarflanib, qilingan xarajatlar 2-2,5 barobar tezroq qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Respublika Prezidenti I.A. Karimovning qator farmonlarini hayotga joriy eta borib yuzlab maxobatli litsey va

kollejlari, minglab o'rta umumiy ta'lim maktablari rekonstruksiya qilinib zamon talablariga javob beradigan darajaga yetkazildi. Ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish borasida ko'plab sport inshootlari rekonstruksiya qilindi va barpo etildi.

Shaharlarimizning ko'rkini yaxshilashda va ularga betakror qiyofa berishda rekonstruksiyaning o'rni beqiyosdir. Xususan, mustaqillik yillarida shahrimiz qiyofasining tanib bo'lmas darajada o'zgarishi rekonstruksiya, modernizatsiya ishlarining keng miqyosda olib borilishi oqibatida yuz berdi. Bu borada obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari ham keng ko'lamda bajarilayapti.

Rekonstruksiya majmuiy tavsifga ega bo'lib, shahar, rayon, korxona taraqqiyotining uzoq istiqbolini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Aks holda faqat bugungi kun talabi bilan bajarilgan ishlar kelgusida qilinishi kerak bo'lgan rekonstruksiya ehtiyojlarini bajarishda qator murakkabliklar tug'dirishi mumkin. Bu murakkablik nafaqat texnikaviy vazoyning me'moriy qiyofasi nuqtayi nazaridan, iqtisodiy tomondan ham katta ahamiyatga ega.

Odatda turar-joy, jamoat va sanoat binolarining rekonstruksiyasi yuqori darajada siqqlik sharoitida o'tkaziladi. Bu esa qurilish mashina va mexanizmlarining to'la komplektidan foydalanish, material va buyumlarning me'yoriy zaxirasini hosil qilish uchun saqlash joylarini tashkillashtirish imkoniyatini bermaydi. Konstruksiyani (ayniqsa, yirik gabaritli) olib kelishda ham o'tish joylarining mavjud gabaritlari tufayli juda katta qiyinchilik tug'ilishi mumkin. Yuk ko'taruvchi mexanizmlarni montaj zonasiga qulay holda o'rnatish uchun joy belgilashda ham ko'pincha jiddiy murakkabliklar yuzaga keladi. Konstruksiyalarni olib tashlash yoki montaj qilish hollarida ba'zan kranlardan foydalanish umuman mumkin bolmay qoladi va muammoni soddaroq konstruktiv yechimini izlashga to'g'ri keladi. Bunday holatlar uchun ham an'anaviy, ham yangi yechim, yuqori mustahkamlikka ega materiallardan bo'lgan konstruksiyalardan foydalanishga asoslangan qator takliflar ishlab chiqarilyapti va joriy etilyapti. Rekonstruksiya bino va inshootlar yuk ko'taruvchi ustunlarini

ekspluatatsiyaviy ko'rsatkichlarini tiklash va kuchaytirish bilan bog'liqdir. Bu ishlar esa har bir muayyan vaziyatda, yangi qurilishdan farqli alohida yondashuvni talab etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bino va inshootlarning texnik holatini baholash, ularni remont qilish yoki kuchaytirish ehtiyojining mavjudligi, hamda ularning bundan keyingi ekspluatatsiyaga yaroqliligi haqida xulosa chiqarish, faqatgina muayyan obyektning texnik ko'rikdan o'tkazish asosidagina amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda qurilish konstruksiyalarini tayyorlash va montaj qilish sifatini nazorat qilish xizmati yetarli darajada tashkil etilmagan. Xususan, ekspluatatsiya qilinayotgan noyob bino va inshootlar holatini muntazam tekshirib turish, ularda yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy hodisalarning (notekis cho'kish, turli shikast va nuqsonlar hosil bo'lishi va boshqalar) oldini olish, yoki boshlanish davrida kerakli chora- tadbirlar qo'llash, ularning ekspluatatsiya qilish muddatini uzaytirib, kelgusi avlodga yaxshi holatda qoldirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan tegishli vazirliklar, mahalliy hokimliklar mavjud arxitektura yodgorliklarni, noyob bino va inshootlarni ro'yxatga olib, ularning har biri uchun texnik tavsiflari aks ettirilgan hujjat (pasport) joriy etib va vaqt mobaynida texnik holatlarini o'rganib borish, ya'ni monitoring o'tkazish uchun ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot, loyiha tashkilotlari bilan xo'jalik shartnomasi tuzilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu tadbir transportning turli xillari va miqdori nihoyatda oshgan, antropogen omillarning ta'siri kuchaygan va zilzila, kuchli shamol kabi tabiiy ofatlar bilan birgalikda qaralsa, nihoyatda katta ahamiyat kasb etishini inkor etib bo'lmaydi.

Eski binolarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish borasida respublikamizning barcha yirik shaharlarida katta tajriba oltirildi. Ayniqsa, poytaxt Toshkent shahrida mustaqillik yillari amalga oshirilgan ishlar beqiyos katta hajmda bo'lib, yirik tadqiqotlar o'tkazish uchun yetarli ilmiy-texnik imkoniyatlar beradi. Shu jihatdan mazkur risolada bizlarga havola etilayotgan materiallar asosan, Toshkent shahrida bajarilgan rekonstruksiya ishlari tajribasini

aks ettiradi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2013-yilni mamlakatimizda "Obod turmush yili" deb e'lon qildi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi so'zlagan nutqlarida. "2009-2012-yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish bo'yicha maxsus dasturning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida 650 ta yangi qishloq uy-joy massivi barpo etildi, umumiy maydoni 3,2 million kvadrat metr bo'lgan 23,6 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy-joy qurildi. Ushbu maqsadlarga 1,2 milliard dollardan ziyod miqdordagi investitsiyalar yo'naltirildi. Uzunligi 732 kilometr asfaltlangan avtomobil yo'llari, mingdan ziyod ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob'ektlari barpo etildi.

Qishloqda qurilish hajmi ortib borayotgani munosabati bilan zamonaviy qurilish sanoati rivojlanmoqda, yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda, aholi bandligi ta'minlanib, uning daromadi va farovonligi tobora oshmoqda.

Har yili yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha yuzlab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda" deb takidlab o'tilar .

Bu nimani anglatadi yangi binolar qurilishi oshib borar ekan sanoat korxonalarining ish ko'lamiga bo'lgan talab ham oshadi.

Jamoat ehtiyojini qondirish uchun zaruriy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularni faqat namunaviy darajaga keltirish orqaligina erishish mumkin, ya'ni barcha turdagi xomashyo, yoqilg'ilar va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laroq foydalanish, mehnatni yengillashtirish, ishlab chiqarishda yangi mahsulotlar tayyorlashga o'tishni taqozo qiladi.

II. ARXITEKTURA - QURILISH QISM

2.1. Turar joy binolari

Jamoat ehtiyojini qondirish uchun zaruriy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularni faqat namunaviy darajaga keltirish orqaligina erishish mumkin, ya'ni barcha turdagi xomashyo, yoqilg'ilar va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laroq foydalanish, mehnatni yengillashtirish, ishlab chiqarishda yangi mahsulotlar tayyorlashga o'tishni qo'niqtirib taqozo qiladi. Rekonstruksiya asosiga eski texnikani yangisi, mukammalrog'i bilan almashtirish, asbob-uskunalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, texnikaviy jarayonlarni mukammallashtirish, xomashyoning samaraliroq turini qo'llash, chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish, mehnatni tashkil etishni mukammallashtirish, ishlab turgan korxonalarni kengaytirish ishchilarga qulaylik yaratish kerak .

Rekonstruksiya bo'lgan zaruriyatni hosil qiluvchi quyidagi asosiy sabablar bor:

1. Mashina va qurilma jihozlar, transportning miqdoriy tarkibini va nomenklaturasini hamda binoning o'zini hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimini qat'iy ifodalovchi buyumlarni qayta ishlash, bog'amlarni yig'ish yoki mahsulot chiqarish texnologiyasini o'zgartirish.

2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini mukammallashuvi bilan hajmini oshishi va uning assortimentida sifatini ko'tarilishi.

3. Xizmatchilarning mehnat sharoitini va ularga ko'rsatilayotgan sanitar-gigienik va maishiy xizmatlarni yaxshilashga bo'lgan ehtiyoj.

jamoat binolarini vazifasini saqlab yoki o'zgartirib rekonstruksiya qilish yoki buzish, xuddi turar-joy binolaridek kelgusida foydalanishning maqsadga muvofiqligi, eskirganlik darajasiga ko'ra belgilanadi. Amaliyotda qurilish materiallari va konstruksiyalarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari davlat standartlarida ko'rsatilgan kattaliklardan farq qilishi va ko'pdan-ko'p omillarning

umumiy ta'siri oqibatida bino va inshootlarning eskirishini tezlashuvi ro'y berishi mumkin. Hozirgi davrda sanoatning rivojlanishi texnologik oqimlarning (bosim, namunalarning temperaturasi, tajovuzkor muhit va mexanik qizish) yuqori tezlikka ega bo'lgan qatorlarida borayotgani uchun, tabiiyki bu ta'sirlar ularning tezroq buzilishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish binolari me'moriy-rejaviy tizimni uch asosiy qurilish davrlariga ajratish mumkin: I guruh — 1945 yilgacha qurilgan korxonalar binosi; II guruh — 1946 yildan 1960 yilgacha qurilgan korxona binolari;

III guruh — 1960 yildan keyin qurilgan zamonaviyroq korxonalarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish binolarini rekonstruksiyalashda quyidagi masalalar hal qilinadi:

1) modernizatsiya qilinadigan yoki yangi joylashtirilayotgan ishlab chiqarishning ehtiyojiga qarab binoning hajmiy-rejaviy tizimni ishlab chiqish, binoning vazifasi o'zgargan holda esa yangi joylashtiriladigan sex talablari bilan bog'lanish lozim;

2) ishlab chiqarishning yangi talablariga ko'ra mavjud yuk ko'taruvchi, to'siq konstruksiyalarning ekspluatatsiyaviy sifatini oshirish;

3) ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda rekonstruktiv qurilish ishlarini o'tkazish sharoitlari, jumladan, texnologik jarayonlarni to'xtamasdan olib borish bilan bog'liq binoning asosiy parametrlari (rejaning konfiguratsiyasi, xona)ning balandligi, ustun (setkasi) o'zgarishi;

4) modernizatsiya qilinayotgan ishlab chiqarish korxonasining ehtiyojini ta'minlash va ishchilarga talabdagi me'yoriy ish sharoiti yaratish uchun injenerlik tizimlarini modernizatsiyalash;

5) zamonaviy talablar, korxonaning umumiy kompozitsiyasi va sanoat estetikasini hisobga olgan holda binoning me'moriy badiiy sifatini va uning interyerlarini mukammallashtirish.

6) Ishlab chiqarish korxonasining texnikaviy qayta qurollanishi va

rekonstruksiya jarayoni, ko'p hollarda texnologik jihozlarni almashtirish, turli qism va bo'limlar nisbatini o'zgarishi va buning bilan bog'liq qayta rejalashlar bilan birga olib boriladi. Qisman yoki to'la qayta rejalashga bo'lgan ehtiyoj sanitariya yoki o't o'chirish tavsiflarini qollash orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarishni rekonstruksiyalashda arxitektura yechimlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar:

Rekonstruksiyalashda yangi qurilishga xos bo'lmagan, konstruksiyalarni demontaj qilish, ularni kuchaytirish, ayrim konstruktiv elementlarni almashtirish, inshootni ajratish kabi majmuiy ishlarni bajarish ehtiyoji paydo bo'ladi. Konstruksiyani kuchaytirish bo'yicha demontaj ishlarining xususiyati shundan iboratki, ularda hamisha binoning saqlab qolinadigan qismlari va kuchaytiriladigan konstruksiyalarining ustuvorligini ta'minlash bo'yicha bajariladigan majmuiy ishlar birgadir. Bu ishlar, odatda, ishlab turgan sexlar sharoitida bajariladi. Shu sababli ularni mexanizatsiyalash qiyinlashadi. Bunda asosiy montaj qilish vositalari eng oddiy montaj moslamalari — lebedkalar, tallar, polispastlar, domkratlar, montaj balkalari ishlatiladi. Shu bois ishchi o'rinni tashkillashtirishda anchagina noishlab chiqarish mehnat sarflariga va ish olib borish jarayonida yuqori darajada mehnat sarfiga olib boradi.

jamoat rivojlanishining hozirgi zamon sur'atlarida chiqarayotgan mahsulot turlaridagi o'zgarish va korxonani jihozlash, nisbatan qisqa vaqt oralig'ida yuz beradi.

2.2. Turar-joy binosining umumiy tavsifi

Binoning joylashish manzili: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'be tumanidagi davlat san'at va madaniyat instituti . Ushbu bino rekonstruksiyadan oldin madaniyat instituti edi , hammabirgalikda san'at ham qo'shilib o'qishardi , hozir esa uni texnik ko'rikdan o'tkazilib san'atchilar uchun o'quv ko'rpusiga aylantirildi.

Bu yerda oldingisiga nisbatan honlar kengaytirildi , tualet homomlar va razdevalkalar herografiya uchun yaratildi . Binoni umumiy tavsifiga

Bino joylashgan yer maydonining toshkent shahar seysmik xaritasidagi o`rni	- 8ball
Grunt turining xossasi	- II
Kapitallik guruhi	- I
Olovga bardoshlik darajasi	- II
Qor qalinligining tom yopmasiga beradigan og`irlik kuchi	- 50 kg/m ² (QMQ 2.01.07-96)
Shamolning tezlik bosimi	- 38 kg/m ² (QMQ 2.01.07-96)
Binoning qurilgan yili	- 1975-yil
Binoning foydalanish turi	- Sanoat binosi
Binong konstruktiv sxemasi	- bikrlikka ega, kompleksli konstruksiya
Binoningshakli, o`lchamlar	- to`g`riburchakli, o`qdan olingan o`lcham 64.2x16.5m
Binoning qavatlilik	- 4 qavatli, yerto`lali
Qavat balandligi	- 4.65m
Poydevor	- lentasimon temir-beton va tasmaimon.
Devorlar	- g`ishtli, qalinligi380mm
To`siq devorlar	- g`ishtli, qalinligi 250mm,120mm
Pollar	- keramik plitkali, beton mozaykali va parket
Derazalar	- oldin taxta kegin plastik romlar1510x2000
Eshiklar	- 1va2 tabaqali taxta kegin MDF
Markaziy kirish qismi	- alyumin vitraj yangi turdagi alyumin vitraj
Sokl bezagi	- g'ishtdan suvalgan keyin kraskalangan, hozir esa ital granit
Fasat bezagi	- g'ishtini o'zi, rekonstruksiyadan kegin shkaturka fasat kraskasi
Otmoska	- asfaltbetonli, eni 1,5m
Issiqlik ta`minoti	- markaziy, isitish qozonidan

Shamollatish tizimi	- oddiy, rekonstruksiya dan kekin markaziy maxsus shamollatish tizimi chillerlardan
Soviq suv ta`minoti	- shahar suv ta`minotiga ulangan
Issiq suv ta`minoti	- markaziy suv taminotdan ulangan
Kanalizatsiya	- shahar tarmog`iga ulangan
Elektr ta`minoti 0,4 kV	- 3 fazali kabel orqali

Texnik – iqtisodiy ko`rsatkichlar

№	Ko`rsatkich nomlari	O`lchov birligi	Soni	
			Rekonstruksiya oldin	Rekonstruksiya keyin
I. <i>Songa oid ko`rastkichlar</i>				
1	Umumiy maydon	m ²	4237.2	4237.2
2	Foydali maydon	m ²	3389,76	3813,48
3	Qurilish maydoni	m ²	1059,3	1059,3
4	Qurilish hajmi	m ³	17796,24	18855,54
5	Xonadonlar soni	dona	13	17
6	Qavatlar soni	dona	4	4
<i>Sifatga oid ko`rastkichlar</i>				
1	Rejalashning ratsionallik koeffisenti	m ² /m ²	0.82	0.84
2	Hajm koeffisenti	m ³ /m ²	8.04	6.65

jamoat binolarini hajmiy rejasi vazifasini iqtisodiy-texnik baholash bu qurilishga ajratilgan kapital mablag`larni, effektini va harajatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Rejalashtirishning ratsionallik koeffisienti:

$$K_1 = S_{ish} / S_{umum} ;$$

Hajm koeffisienti:

$$K_1 = V_{\text{qur}} / S_{\text{umum}} ;$$

Bu yerda: S_{ish} - ishchi maydoni; S_{umum} – umumiy maydon;

V_{qur} – qurilish hajmi;

2.3 Binoni texnik ko'rikdan o'tkazish

2.4.1 Vizual ko'rik

Poydevor—o'zgarishlar kuzatilmadi.

Sokol - namlanish izlari kuzatiladi, mayda darzlar paydo bo'lgan, ayrim joylari o'pirilib tushgan.

Devorlar - fasad tomonda bo'ylama va mayda darzlar kuzatiladi, suvoqlar ko'chgan.

Pardevorlar - vertikalidan og'ish kuzatiladi, shift va pollar tutashgan joylarda murashlar kuzatiladi.

Orayopmalar - devorlarga tutashgan joylarda darzlar paydo bo'lgan, namlanish dog'lari kuzatildi.

Zinapoyalar - pag'onalarda bazi joylarida o'yiqlar, birikish joylarida darzlar, suyanchiqlar buzilgan, maydonchadagi plitalar ko'chgan.

Pollar - keramik plitkalar ko'tarilishi kuzatiladi.

Derazalar – yaroqsiz ahvolga kelib qolgan, tob tashlagan, atkoslari buzilgan, deraza oynalari tushib qolgan.

Eshiklar - qiyshaygan, shishib yopilishi qiyinlashgan, atkoslar buzilgan, bo'yoqlari ko'chgan, atrofida yoriqlar kuzatiladi.

Yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning texnik holati

№	Tekshirilayotgan konstruksiyalar tavsifi	Texnik holati	Fizik yemirilish %	Tavsiya etiladi.
1.	Poydevorlar: lentasimon quyma temir-beton	Yemirilish, o'pirilish holatlari kuzatilmadi.	-	-
2.	Devorlari:	Darzlar kengligi 1mm	20	Shtukaturka

	g`ishtterilgant=380mm	dan, chuqurligi devor qalinligining 1/3dan, choklarning 1.2 sm dan chuqur buzilish yuzasidan 10%dan		bilan tamirlash, choklarni yamash, fasadni tozalash
3.	Kolonna: 400x400mm o`lchmdagi quyma temir-beton,	Buzilish holatlari yo`q	-	-
4.	Temir beton bog'lama belvoq (poyez avlyaska): 500x400(h)mm o`lchamli quyma temir-beton	Egilish va yemirilish holatlari yo`q. Tutashgan joylarida choklari to`kilgan	10	choklarni sement qorishma bilan yamash
5.	Zilzilaga qarshi belbog`:</b> 220x260(h) o`lchamdagi quyma temir-beton	Buzilish holatlari yo`q	-	-
6.	Pardevorlar: t=120-250mm o`lchamli gi`sht	Mayda va chuqur darzlar ayrim joylarda 2mm dan	40	Devor yuzasini tozalab darzlar yamaladi
7.	Orayopma: Qovurg`ali quyma temir beton	Ba`zi ulangan joylarda 0.5 mm yoriqlaning mavjudligi, o`zaklarning namlanish holatlari	10	Yoriqlarni yamash
8.	Zina maydonchasi: Marsh va panduslar yig`ma temir-betondan. - Yig`ma temir betondan zinalar t=380mm o`lchamdagi g`ishtli ustunga ilingan.	Marsh va pandusning tutshgan ba`zi joylarida o`yiqqlar hosil bo`lgan.	20	O`yiqqlarni yamash, marshlarini tuzatish, ushlagichlarini almashtirish
9.	Tomyopma: Qovurg`ali quyma temir beton	Deformatsiya va shikastlanish holatlari kuzatilamagan	-	-
	Tomqoplama:		40	

	Avval yumshoq, o`rama qoplamali bo`lgan. 50x50(h)mm	Deformatsiya va shikastlanish holatlari 20% qismida kuzatildi		Shikastlangan joylarni yangisiga almashtirish, qoplamalarni almashtirish
	Pollar: - Mazaykali betondan - sopol plitkalardan	ko`p qatnovli joylar yuzasi o`chib ketgan, yemirilish 0.25m ² gacha umumiy yuzaning 25% gacha -ayrim joylarda plitkalar yo`q, 20-50% plitkalar ko`tarilib shishgan	40	Yemirilgan yuzalarni yamash
	Tashqi devor atrofi to`shamasi : Asfalt betonli eni 1,0m	Yuza qismi va binoga birikkan qismlarda ma`lum qismi shikastlanganligi, yoriqlar mavjudligi aniqlandi.	40	Yoriqlarni yamash

Mavjud pardoqlash ishlarining texnik holati

	Tekshirilayotgan elementlarni tavsifi	Fizik holati
Ichki pardoqlash ishlarining holati		
Pardevorlar		
1-qavat		
	Xonalar va zalda - Shtukaturka	Holati qoniqarli emas. Bo`yoqlar tokilip qorayib ifloslanib ketgan, birxil joylar ishib qolgan, suvoq to`kilishi 55%, sho`rlanish va mo`g`rlanish maydoni 70%.

2-qavat		
	Xonalar va zalda - Shtukaturka	Qoniqarsizholatda. Bo`yoqqatlamieskiribifloslangan, joylardasuvoqlardaishibpufakchalarpaydobo`lishi 55%, sho`rlanishvamo`g`arlashmaydoni 70%.
Pollar		
1-qavat		
	Sanuzellarda Keramik plitkali	Xona polida sirli plitka bo`yoq qatlami ko`chib yo`lakchalar hosil bo`lgan; pol qatlamining ko`tarilishi 0,5m2 gacha maydon yuzasi 25% gacha.
	Zal va xonalarda Linoleum.	Xonapolidayuzaqatlamiko`chibyo`lakchalarhosilbo`lgan; polqatlaminingko`tarilishi 0,5m ² gachamaydonyuzasi 25% gacha.
Shift		
1-qavat		
0	Qavat bo'yicha Ohak	Bo`yoqqatlamieskiribifloslangan, ayrimjoylardapufakchalarningpaydobo`lishi, yuzalarningnamilikoqibatidato`kilishi, bo`yoqningeskirishi.
2-qavat		
	Zina maydonchasi: Ohak	Ayrimjoylardashiftlaro`pirilibtushgan, Bo`yoqqatlamieskiribifloslangan, ayrimjoylardapufakchalarningpaydobo`lishi, bo`yoqningeskirishi.

	Zal va xonalarga Ohak	Yuzalarning namlik oqibatida to'kilishi, B o'yoqqatlamies kiribifloslangan, ayrim joylarda pufakchalarning paydobo'lishi, bo'yoqning eskirishi.
Oyna		
	Rom Yog'ochli	Deraza oraliqlari, korobka va podokonnik qismlari shikastlangan, yog'och qismi nisbatan chirigan, bo'yoqlar ko'chib tushgan. Yaroqsiz holatda
Eshik		
	Eshik Yog'ochli	Eshik korobkalari shikaslangan, yog'och qismi cherish va egilish holatlarida, bo'yoq qismiko'chgan.
Maxsus darvoza		
	Kiraverish eshigi Alyumin vitraj	Alyumin eshik korobkalari egilgan, kuchli darajada zanglagan, ularning ayrimlari ishlatiladi, qolganlari yaroqsiz holatda.
Tom qoplama		
	Nishabli tom ruberoyit	36% gacha bo'lgan yemirilish yaroqsiz holga kelgan.
Tashqi fasad		
	Sokl Sement qorishmali.	Tashqi qismda 5-5m ² dan ko'p bo'lgan, umumiy maydoni 48% gacha bo'lgan qismida buzilish va ko'chish holatlari mavjud.
	Devor Sement qorishmali mozaykali mayda toshlardan	Devorning bezak uchun bo'rtirib chqarilgan joylari 1.4-2sm gacha bolgan darzlar, Ayrim joylarda 1m ² yuzalar umumiy

	maydoni 33%gacha bo'lgan qismida buzilish va ko'chish holatlari mavjud.
--	---

**Mavjud isitish, shamollatish tizimi, suv tarmo'gi, kanalizatsiya tarmog'I
va yong'indan himoya tizimining texnik holati**

	Tekshirilayotgan elementlarni tavsifi	Fizik holati
Isitish tizimi		
	Trubaprovod Ø20- Ø76mmo'lchamdagimagistra lpo'latquvurlardan	Kuchli chirko qibatida teshilish holati aniqlandi, joylarda alohida uchastkalarining radiatorlar ulanish joylari tamir talab.
	Isitish jihozlari– MS-140 turdagi cho'yan radiatori	Seksiyalararo bog'lanish joylarida chirk oqish holatlari va suv tom4ilari oqibatidagi izlar mavjud. Texnikko'rikvaqtida 80% uskunalaryaroqsizholdabo'lgan.
	Armatura Ø15-Ø50mm	Tashqiqisndanchirkbosgan. Quvurlarningulanganqismidasuvtomishioqibati dagiizlarmavjud. Ishlash faoliyati qoniqarsiz.
Shamollatish tizimi		
	Shamolatish quvurlari	Ichki qismi ifloslanib, chiqindilar yig'ilib qolgan, havo kirish tuynulkar zanglab yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Suv ta'minoti		
	Magistral suv quvurlari - metall quvurlar Ø25mm.	Quvurlarning qotirilgan qismlari quvur o'rnatish normalariga to'g'ri kelmaydi. Ayrim joylari kuchli zanglash oqibatida teshiklar paydo bo'lgan.
	Suv osti quvurlari - metall quvurlar Ø15mm	Ayrim joylari kuchli zanglash oqibatida teshiklar paydo bo'lgan.
Ichki kanalizatsiya		
	Kanalizatsiya quvurlari - kanalizatsion temir quvurlar Ø100-50mm	Quvurlat tutashgan joylaridan suyuqlik o'tishi, ayrim quvurlar yorilib yaroqsiz holga kelib qolgan.
	Santexnik jihozlar -	Chirkbosish holati, ayrim joylarda jihozlar mavjud emas, jihozlardayoriqlarmavjud.
Yong'indan himoya tizimi		
	Suv purkagich quvurlar Ø25-Ø15mm	50% qismi zanglab qoniqarsiz holatda, hozirgi zamon talabiga javob bermaydi, purkagichlar yaroqsiz holatda.

2.4.2 Instrumental ko'rik

Bino xolatini baxolash uchun NPP «Interpribor». Priborlari ko'rik natijalari quyidagilar

➤ Pribor «Oniks-OS»(beton mustaxkamligini o'lchovchi). Beton mustaxkamligini barcha elementlarda KMK 2.03.01-96. "Beton va temirbeton konstruksiya" normasiga mos.

➤ «Pulsar-1.2»(ultratovushli defektoskop). Konstruksiyada defekt aniqlanmadi. Pardevor yaxshi xolatda

➤ INK-2.4(Armaturadagi kuchlanishni o'lovchi). Armaturadagi kuchlanish barcha elementlarda KMK 2.03.01-96. "Beton va temirbeton konstruksiya" normasiga mos. Loyixadan chetka chiqish aniqlanmadi.

➤ «Poisk-2.5»(Beton ximoya qatlamini o'lovchi). Ushbu ko'rik natijasida armatura joyi aniqlandi, ximoya qatlamini qalinligi o'lvandi, barcha konstruksiyadagi armatura diametri aniqlandi. Barcha ko'rsatkichlar KMK 2.03.01-96. "Beton va temirbeton konstruksiya" normasiga mos.

➤ VIMS-2(materiallar namligini o'lovchi). Ushbu pribor yordamida tomyopma plitalari, tomqoplama, issiklik saqllovchilar ko'rikdan o'tkazildi. Ko'rsatkichlar KMK 2.03.10-95. «Tom va tom qoplama» ma'lumotlariga mos.

2.4.3 Ko'rik tahlili

Barcha ko'riklar natijasida quyidagi vazifalar qabul qilindi. Konstruksiyaning yuk ko'tarish qobiliyatini, zil-zilabardoshliligini, xavfsiz ekspluatatsiyani ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalar tavsiya qilindi:

1. Tashqi devorlar yuzasida suvoq va pardoz ishlarini bajarish, panellar orasidagi choklarni tozalab polimersementli qorishma bilan tiklash.
2. Lift shaxtasini demontaj qilish
3. Injener kommunikatsiya, eshik va deraza o'rnatish.
4. Binoga estetik ko'rinish berish
5. Barcha pardevorlarni olib tashlash. Yangi pardevorlar o'rnatib, binoning yangi loyixasiga seysmik qurilishni xisobga olib moslashtirish.
6. Asosiy konstruksiyaning pastki qismidagi sho'rlanish va zambrug'larni maxsus qorishma bilan yuvish.
7. Binoni cho'kish deformatsiyasiga uchramasligi uchun bino perimetri bo'yicha suv o'tkazmaydigan beton otmoskalarni binodan tashqariga nishab ostida qurish kerak. Bino barcha maydoni bo'yicha obodonlashtirish ishlarini olib borish kerak.

8. Keyinchalik binoni ishonchli va xavfsiz ekspluatatsiya qilish uchun vaqti-vaqti bilan konstruksiyalarni texnik xolatini tekshirib turish lozim.

2.5. Qabul qilingan vazifalar

Vazifalar binoni tekshirish natijalariga asoslanib qabul qilindi

2.5.1. Hajm rejaviy yechim uchun vazifa

- QMQ 2.01.03-96 “Jamoat binolari” ga muvofiq 4-qavat xonalarni rejalashtirish;
- ish ko'lamini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida ishzalini kengaytirish va yangi zamonaviy qurilma bilan jixozlash;
- ishlash sharoitini komfortlash maqsadida xonalarni qayta rejalashtirish va sanitariya tarmoqlarini zamon talabiga mos ravishda jihozlash.

2.5.2. Konstruktiv yechim uchun vazifa

- eshiklarni to'liq yangi turdagisiga almashtirish;
- derazalar plastik profillardan, ikki qatlamli oyna blokli, tovush izolatsiyali derazalarga almashtiriladi;
- pollar xona vazifasiga ko'ra pol qoplamalari bilan qoplash;
- pollarda issiqlik va tovush izolatsiyasi xususiyatini yaxshilash;
- zina ushlagichlarini to'la almashtirish;
- fasad old tomni otmoskasini 1.5m li qilib asfaltbeton bilan qayta bajarish;
- qor –yomg'ir suvlarini tashqaridan uzatuvchi quvurli tarnovlarni o'rnatish;
- chordoqli tomqoplamasi tola almashtirilib, suvni to'rt tomonga chetlatish ko'zda tutilgan tom konstruksiyasi almashtirish, qoplama sifatida rangli profnostil qoplamasi bilan qoplash, ;
- bino fasadini zamon talabiga mos ravishda tejomkor usullar yordamida yangi qiyofga keltirish.
- unitaz rakvina va kranlar, turbaprovodlarni yangisiga almashtirish

Rekonstruksiyadan keyingi umumiy tavsifi

Bino 1- o'quv ko'rpusi 4 qavatli padvali bilan . Bino planda to'g'ri to'rtburchak fo'rmaga ega , razmerlari o'qda 64,2x15,3 m fasatning yontomonlaridan ko'zda tutiladi. Planirovka qilingan honalarda sanitariya gigenik va yong'inga qarshi normalarga qilingan . binoda ko'zda tutiladi ijod usta honasi , tovush yozuvchi studiya , dekanni honasi , auditoriya , sanuzel , dush va yordam beruvchi honalar .

Ajaratuvchi devorlar armog'ishtli qalinligi 120mm . Tom krovlya profnastil qoplami uskuna qilingan oyna plastik vitraj alyuminli standartga to'g'ri keladigan OzDST 700(701 96 . Eshik alyuminli kiraverish yong'inga qarshi . Qolgan honalarda esa MDF eshiklari qo'yilgan . ichki oddelkalari devor shtukaturka , shpaklyo'fka va eng oliy kraskalar VA27 nam bo'ladigan joylarda yani dushavoy va honalarda otdelka keramika plitasi qalinligi 2.1sm tovush yozuvchi studiyada perf obshifkasi plita knauf ,shift potoloklar podvesnoy armstrong , sanuzel , dushavoyda dekorli plastik reyka , qolgan hamma honalarda ba kraska .

Pol va vestibule va dahlisda keramogranit xerografik honalarda taxtali ,tuvush yozuvchi studiyada esa kovrolan sanuzel va dushda esa keramik plita qolgan honalarda esa linoleumbilan qilingan tashqi otdelka ishlarida devor shtukaturka , fasat kraskasi bilan bo'yalgan . Sokl otdelkasi italgranit bilan qilingan

yoki kuk saroy . O'rta chiqish portalda otelka granit plitasi kuk saroy. Karniz obshivka kompozitsali material Alubond o'quv ko'rpusida ofis va o'quvchilarga to'g'ri keladigan mebel jihozlandi . lift PP0621 yuk ko'tarish 630 kg , ijod usta honasi ,

tiator o'tkazadigan zal va tovushyozuvchi studiayaga texnologik yangi qurilmalar bilan jixozlandi .

Binoni rekonstruksiyan keyingi holati 3d ko'rinishda

Fasatni aksanometrik ko'rinishi



dahlis



ijod honasi

rasm 1



rasm 2



rasm 3



rasm 4



kiraverish rasm 1



rasm 2




kiyinadigan va yuvinadigan hona
rasm 1



rasm 2

rasm 3



III

KONSTRUKTIV- HISOB QISMI

3.1. Yuk ko`taruvchi konstruksiyalarning texnik holati

	Tekshirilayotgan konstruksiyalar tavsifi	Texnik holati	Fi zik yemirilish %	Tavsiya etiladi.
.	Poydevorlar: stakansimon quyma temir-beton va lentasimon quyma temir-beton	Yemirilish, o`pirilish holatlari kuzatilmadi.	-	-
.	Devorlari: g`ishtterilgant=3 80mm	Darzlar kengligi 1mm dan, chuqurligi devor qalinligining 1/3dan, choklarning 1 sm dan chuqur buzilish yuzasidan 10%dan	15	Shtukat urka bilan tamirlash, choklarni yamash, fasadni tozalash
.	Kolonna: 500x700mm o`lchmdagi quyma temir-beton,	Buzilish holatlari yo`q	-	-

.	Ravoq: 500x500x400(h) mm o'lchamli quyma temir-beton	Egilish va yemirilish holatlari yo`q. Tutashgan joylarida choklari tokilgan	10	choklar ni sement qorishma bilan yamash
.	Zilzilaga qarshi belbog`: 150x300(h) o'lchamdagi quyma temir-beton	Buzilish holatlari yo`q	-	-
.	Pardevorlar: t=120-250mm o'lchamli gi`sht	Mayda va chuqur darzlar ayrim joylarda 2mm dan	40	Devor yuzasini tozalab darzlar yamaladi
.	Orayopma: Qovurg'ali quyma temir beton	Ba`zi ulangan joylarda 0.5 mm yoriqlaning mavjudligi, o`zaklarning namlanish holatlari	10	Yoriqlar ni yamash
.	Zina maydonchasi: Marsh va panduslar yig`ma temir-betondan. - Yig`ma temir betondan zinalar t=380mm o'lchamdagi	Marsh va pandusning tutshgan ba`zi joylarida o`yiqlar hosil bo`lgan.	20	O`yiqlar ni yamash, marshlarini tuzatish, ushlagichlarini almashtirish

	g'ishtli ustunga ilingan.			
.	Tomyopma: Qovurg'ali quyma temir beton	Deformatsiya va shikastlanish holatlari kuzatilmagan	-	-
	Tomyopma: Avval yumshoq, o'rama qoplamali bo'lgan. Keyin shifer listlari yog'och brusli obreshotka 50x50(h)mm	Deformatsiya va shikastlanish holatlari 20% qismida kuzatildi	40	Shikastlangan joylarni yangisiga almashtirish, qoplamalarni almashtirish
	Pollar: - Mazaykali betondan - sopol plitkalardan	ko'p qatnovli joylar yuzasi o'chib ketgan, yemirilish 0.25m ² gacha umumiy yuzaning 25% gacha ayrim joylarda plitkalar yo'q, 20-50% plitkalar ko'tarilib shishgan	40	Yemirilgan yuzalarni yamash
	Tashqi devor atrofi to'shamasi : Asfalt betonli eni 1,5m	Yuza qismi va binoga birikkan qismlarda ma'lum qismi shikastlanganligi,	40	Yoriqlarni yamash

		yoriqlar mavjudligi aniqlandi.		
--	--	-----------------------------------	--	--

3.2 Binoni tekshirish va texnik tadqiqod usullari

Bino konstruktiv elementlarini tekshirishdan maqsad - barcha yoki aksariyat nuqsonlarni topish va ularni kelib chiqargan sabablarini aniqlashdan iborat.

Tekshirish asosida konstruksiyani yaxshilash, kuchaytirish yoki almashtirish haqida qaror qabul qilinadi va loyihalash uchun dasitlabki hujjatlar tuziladi. Ular qaror bo'yicha va uning binodagi o'rni va ko'zda tutilgan hajmi buzilishi lozim.

Tekshirish va tashxis usullari

Tekshirish usullari	Bino elementlarining tavsifi	Qiyosiy mehnat sarfi
Ko`rish	Ko`rish uchun imkon bo`lishi lozim	I
Mexanik – oddiy asboblarda yordamida	Tosh, beton, qisman yog`och	II
Buzilmas usullarda asboblarda bilan	Beton, g`isht, metal, yog`och	II

Labarotoriyaviy	Namuna olish mumkin boʻlgan joyda	III
Asliy sinovlar	Buzish mumkin boʻlgan elementlar	IV

Ko'rish usuli bilan ba'zan ko'rikdan o'tkazish mumkin bo'lmagan konstruktiv elementlar, masalan poydevor, ayrim balkalarning holatini aniqlash mumkin.

Labaratoriya usuli tashxis qoyish turining aniqlovchi, yordamchi usul hisoblanadi.

Bino unsurlari mustahkamligi buzilmas usullar yordamida nazorat qilishning mexanik usullari orqali ham aniqlanadi. Buzilmas usullar yordamida nazorat qilish usullari o'z mohiyatiga ko'ra beton mustahkamligini buzmasdan nazorat qilish usullari element yoki detallarni ko'p martalab foydalanishga yo'l qo'yadi va shu bilan birga qurilma mustahkamligini pasaytirmasdan katta hajmdagi ma'lumot olishga va o'lchovlar aniqligini oshirishga imkon beradi. Buzmasdan nazorat qilishning mexanik usullari quyidagicha:

Sindirib uzib olish usuli quyidagicha bajariladi

Betonda parmalab yoki urib chuqurcha qilinadi, unga ankerli qurilma mahkamlanadi, asbob ankerli qurilma bilan biriktiriladi, 1.5-3.0 kN/s tezlikda kuchlanish oshib boriladi. Asbobning kuch o'lchash natijasi va sug'irilish chuqurligi kamida 1 mm aniqlik bilan belgilanadi.

Agar ankerli qurilmadan beton sug'irilib olingan qismlarning eng katta va eng kichik o'lchamlari qurilma yuzasi bo'yicha buzilish chegarasida bo'lgan farqi ikki martadan ko'p bo'lsa, hamda agar sug'irish chuqurligi ankerli qurilmalar 015 o'rnatilgan chuqurlikka nisbatan farqi 5% dan ko'p bo'lsa, beton mustahkamligining sinov natijalari faqat taxminiy baholash uchun hisobga olinadi. Buning uchun GPNS-5 GPNS-4 PBI asboblari ishlatiladi

Uzib olish usuli:

